



MUTUAL COOPERATION IN THE FIELD OF TOURISM AMONG THE COUNTRIES OF CENTRAL ASIA

Azizbek Ziyoviddinovich Muminov
Yangi Century University, Head of the Academic
Department, PhD in History, Acting Professor
m.azizbek14051983@gmail.com
Tashkent, Uzbekistan

ABOUT ARTICLE

Key words: Central Asia, tourism, regional cooperation, cross-border routes, historical heritage, integration, sustainable tourism, Uzbekistan, international cooperation.

Received: 17.04.26
Accepted: 18.04.26
Published: 19.04.26

Abstract: This article examines the processes of formation, stages of development, and future prospects of cooperation in the tourism sector among the countries of Central Asia—Uzbekistan, Kazakhstan, Kyrgyzstan, Turkmenistan, and Tajikistan. Key factors in the development of regional tourism are identified as shared cultural and historical heritage, geopolitical proximity, and infrastructure integration. Furthermore, the article substantiates the necessity of jointly developing international tourist routes, implementing cross-border tourism projects, and strengthening cooperation in tourism instead of competition. The concluding section provides recommendations for establishing a sustainable and integrated tourism system in the region.

MARKAZIY OSIYO MAMLAKATLARI O‘RTASIDA TURIZM SOHASIDA O‘ZARO HAMKORLIK

Azizbek Ziyoviddinovich Muminov
Akademik bo‘lim boshligi, tarix fanlari
bo‘yicha falsafa doktori PhD, prof v.b
Yangi Asr Universiteti
m.azizbek14051983@gmail.com
Toshkent, O‘zbekiston

MAQOLA HAQIDA

Kalit so‘zlar: Markaziy Osiyo, turizm, mintaqaviy hamkorlik, transchegaraviy
Annotatsiya: Mazkur maqolada Markaziy Osiyo mamlakatlari – O‘zbekiston,

yoʻnalishlar, tarixiy meros, integratsiya, barqaror turizm, Oʻzbekiston, xalqaro hamkorlik.

Qozogʻiston, Qirgʻiziston, Turkmaniston va Tojikiston oʻrtasida turizm sohasidagi hamkorlik aloqalarining shakllanishi, rivojlanish bosqichlari va istiqbollari yoritib berilgan. Mintaqaviy turizmni rivojlantirishda umumiy madaniy-tarixiy meros, geosiyosiy yaqinlik va infratuzilma integratsiyasi muhim omillar sifatida koʻrib chiqiladi. Shuningdek, maqolada xalqaro turizm yoʻnalishlarini birgalikda rivojlantirish, transchegaraviy sayyohlik loyihalarini amalga oshirish hamda turizm raqobat oʻrniga hamkorlikni kuchaytirish zarurati asoslab berilgan. Xulosa qismida esa mintaqada barqaror va integratsiyalashgan turizm tizimini shakllantirish boʻyicha tavsiyalar keltirilgan.

ВЗАИМНОЕ СОТРУДНИЧЕСТВО В СФЕРЕ ТУРИЗМА МЕЖДУ СТРАНАМИ ЦЕНТРАЛЬНОЙ АЗИИ

Азизбек Зиёвиддинович Муминов
Университет Янги Век
Начальник академического отдела,
доктор философии (PhD) по
историческим наукам, и.о. профессора
m.azizbek14051983@gmail.com
Ташкент, Узбекистан

О СТАТЬЕ

Ключевые слова: Центральная Азия, туризм, региональное сотрудничество, трансграничные маршруты, историческое наследие, интеграция, устойчивый туризм, Узбекистан, международное сотрудничество.

Аннотация: В данной статье освещаются процессы формирования, этапы развития и перспективы сотрудничества в сфере туризма между странами Центральной Азии — Узбекистаном, Казахстаном, Кыргызстаном, Туркменистаном и Таджикистаном. В качестве ключевых факторов развития регионального туризма рассматриваются общее культурно-историческое наследие, геополитическая близость и интеграция инфраструктуры. Кроме того, в статье обосновывается необходимость совместного развития международных туристических маршрутов, реализации трансграничных туристских проектов, а также усиления сотрудничества в туризме вместо конкурентной борьбы. В заключительной части представлены рекомендации по формированию устойчивой и интегрированной системы туризма в регионе.

Kirish. Markaziy Osiyo mamlakatlari o'rtasida turizm sohasida o'zaro hamkorlikni rivojlantirish mintaqaning iqtisodiy, madaniy va ijtimoiy taraqqiyoti uchun muhim ahamiyatga ega. O'zbekiston, Qozog'iston, Qirg'iziston, Tojikiston va Turkmaniston kabi Markaziy Osiyo davlatlari o'zlarining boy tarixiy-madaniy merosi, tabiiy boyliklari va o'ziga xos an'analari bilan dunyo turizm bozorida munosib o'rin egallash imkoniyatiga ega. So'nggi yillarda ushbu mamlakatlar o'rtasida turizm sohasida hamkorlikni kengaytirish bo'yicha muhim qadamlar qo'yildi, bu esa mintaqa ichida va xorijda sayyohlar oqimini oshirishga xizmat qilmoqda. O'zbekistonni Markaziy Osiyoda turizm markazlaridan biriga aylantirishda Prezident Sh.Mirziyoyev ta'kidlaganidek, "...O'zbekiston noyob bir mamlakat bo'lib, uning hududida eng qadimgi tamaddun va madaniyatlar yuzaga kelgan, rivojlangan, o'z jozibadorligi jihatidan dunyodagi dam olish va sayohatlar uchun eng yaxshi maskanlardan qolishmaydigan ulkan turizm salohiyatiga egadir"[1]. Ushbu maqolaning maqsadi Markaziy Osiyo mamlakatlari o'rtasida turizm sohasidagi o'zaro hamkorlikning shakllanishi, rivojlanish bosqichlari hamda istiqbollari tahlil qilishdan iborat. Tadqiqot doirasida mintaqaviy turizmni rivojlantirishga ta'sir etuvchi omillar, jumladan, umumiy tarixiy-madaniy meros, transport-kommunikatsiya tizimlari, transchegaraviy loyihalar va xalqaro turizm bozoridagi raqobat muhitining o'rni o'rganiladi.

Mintaqaviy darajada turizmni rivojlantirish, mamlakatlar o'rtasida o'zaro hamkorlikni mustahkamlash orqali yanada samarali natijalarga erishish imkonini bermoqda. Shu nuqtai nazardan, Markaziy Osiyo mamlakatlari — O'zbekiston, Qozog'iston, Qirg'iziston, Turkmaniston va Tojikiston o'rtasida turizm sohasidagi hamkorlikni rivojlantirish dolzarb ilmiy va amaliy masalalardan biri hisoblanadi. Tadqiqotchi Oybyek Sirojov Markaziy Osiyo mintaqasida hamkorlik jarayonlari hamjihatlik va taraqqiyotni ta'minlashini ta'kidlab o'tadi [2]. Mazkur mintaqa o'zining boy tarixiy-madaniy merosi, qadimiy sivilizatsiya markazlari, Buyuk Ipak yo'li bilan bog'liq turistik resurslari, shuningdek, noyob tabiiy landshaftlari bilan ajralib turadi. Shu bilan birga, davlatlar o'rtasidagi geografik yaqinlik, umumiy tarixiy ildizlar va madaniy o'xshashliklar turizmni birgalikda rivojlantirish uchun qulay shart-sharoit yaratadi.

Tadqiqot usullari. Mazkur tadqiqotni amalga oshirish jarayonida kompleks yondashuv asosida bir qator ilmiy-uslubiy metodlardan foydalanish Markaziy Osiyo Respublikalarining tabiiy-geografik sharoitlari, ekologik holati, suv va yer resurslari hamda tabiat yodgorliklarining turizm salohiyatini yoritish imkonini beradi. Tizimli yondashuv asosida shakllantirilib, unda nazariy va amaliy tahlil usullari uyg'unlashtirildi. Markaziy Osiyoda mavjud turistik resurslar va transchegaraviy turistik marshrutlar o'rganilib, ularning geografik joylashuvi va rivojlanish imkoniyatlari o'rganishda kartografik va hududiy tahlil usullari orqali ochib berildi. Taqqoslash

usulidan foydalanib Markaziy Osiyo davlatlari o'rtasida turizm rivojlanishidagi farqlar va umumiy tendensiyalar solishtirildi.

Natija va muhokama. O'zbekiston tashqi siyosatining asosiy yo'nalishlaridan biri Markaziy Osiyodagi yangi mustaqil davlatlar – Qozog'iston, Qirg'iziston, Tojikiston, Turkmaniston bilan hamkorlik va do'stlik aloqalarini mustahkamlashdan iborat. Mintaqada iqtisodiy tanglikdan qutilish uchun zarur islohotlar o'tkazish kerak, degan xulosaga keldilar. G'arbiy Tyan-Shan bu, uch davlat – O'zbekiston, Qozog'iston va Qirg'izistonning hududi. Shuning uchun bu davlatlar o'rtasida faol hamkorlik va muvofiqlikka erishmay turib, bu yerda turizmni rivojlantirib bo'lmaydi[3]. Bunda masala faqat xorijiy sayyohatchilar yoqtiradigan transchegaraviy turistik mashrutlarni yaratish ustida emas, balki, tabiiy boylikni asrash, hayvonlarni noqonuniy yo'l bilan ovlash orqali ularni vahshiyona qirib yuborishga yo'l qo'ymaslik, industriyaning salbiy ta'sirini kamaytirish, mahalliy iqtisodiyotni ko'tarish ustida hamdir. Hududni rivojlantirishdan hokimiyat ham, mahalliy aholi ham manfaatdor bo'lishi lozim. Ular o'z hududlarida yuz beradigan barcha xo'jalik jarayonlarini nazorat qilishlari va boshqarish ishlari jilovini o'z qo'llariga olishlari kerak. G'arbiy Tyan-Shanning tabiiy boyliklarini asrash yuzasidan TESIS loyihasi aynan shu muammoni hal qilishga qaratilgan.

O'zbekiston Markaziy Osiyoning atrof-muhitni muhofaza qilish sohasidagi mintaqaviy hamkorlik jarayonida faol ishtirok etmoqda. U tabiiy boyliklardan foydalanish, atrof-muhitni muhofaza qilish va barqaror rivojlanishni boshqarish muammolarini muvofiqlashtirish va yechish uchun yo'naltirilgan[4]. Bunday jarayonlar Markaziy Osiyo mamlakatlari o'rtasidagi turizm sohasidagi hamkorlik nafaqat iqtisodiy foyda keltiradi, balki xalqlar o'rtasidagi ekologik masalalarni xal qilish, madaniy almashinuvni kuchaytiradi va mintaqaviy barqarorlikni ta'minlaydi. Turizm orqali mamlakatlar o'zlarining boy madaniy merosini, jumladan, Buyuk Ipak yo'li yodgorliklari, Samarqand, Buxoro, Xiva, Almati, Bishkek va Dushanbe kabi tarixiy shaharlarni dunyoga targ'ib qilish imkoniyatiga ega. Bundan tashqari, mintaqa davlatlarining tabiiy manzaralari, masalan, Tojikistonning Pomir tog'lari, Qirg'izistonning Issiq-Ko'l ko'li va Qozog'istonning Altay tog'lari xorijiy sayyohlar uchun katta qiziqish uyg'otadi. So'nggi yillarda Markaziy Osiyo mamlakatlari o'rtasidagi siyosiy munosabatlarning yaxshilanishi turizm sohasidagi hamkorlikka ijobiy ta'sir ko'rsatdi. Masalan, O'zbekistonning ochiq va pragmatik tashqi siyosati natijasida mintaqa ichidagi viza rejimi yengillashtirildi, transport kommunikasiyalari rivojlandi va sayyohlar uchun qulay sharoitlar yaratildi. Bu esa mintaqaviy turizmni rivojlantirishga xizmat qildi.

Markaziy Osiyo mamlakatlari o'rtasida birlashgan turistik marshrutlarni ishlab chiqish sayyohlarga bir sayohat davomida bir necha davlatning diqqatga sazovor joylarini ko'rish

imkonini beradi. Masalan, “Ipak yo‘li marshruti” doirasida O‘zbekistonning Samarqand va Buxoro shaharlari, Tojikistonning Penjikent va Qozog‘istonning Turkiston shaharlarini birlashtirgan turpaketlar ishlab chiqilmoqda. Bu kabi marshrutlar xorijiy sayyohlarni jalb qilish bilan birga, mintaqa ichidagi iqtisodiy hamkorlikni kuchaytiradi. Turizmning muvaffaqiyatli rivojlanishi uchun zamonaviy transport infratuzilmasi muhim ahamiyatga ega. Markaziy Osiyo mamlakatlari o‘rtasida temir yo‘l, avia va avtomobil yo‘nalishlarini kengaytirish bo‘yicha ko‘plab loyihalar amalga oshirilmoqda. Masalan, O‘zbekiston va Qozog‘iston o‘rtasida yuqori tezlikdagi temir yo‘l qurilishi rejalashtirilmoqda, bu esa sayyohlarning mintaqa ichida erkin harakatlanishiga imkon yaratadi.

Markaziy Osiyo mamlakatlari birlashgan turistik yarmarkalar va forumlar tashkil etib, o‘z salohiyatini xorijiy bozorlarda targ‘ib qilmoqda. Masalan, Toshkentda o‘tkaziladigan Xalqaro turizm yarmarkasi mintaqa davlatlarining turizm salohiyatini namoyon qilishda muhim platformaga aylandi. Bundan tashqari, Moskva, Berlin va boshqa yirik shaharlarda Markaziy Osiyo turizm mahsulotlarini targ‘ib qilish bo‘yicha ko‘rgazmalar tashkil etilmoqda. Turizm sohasidagi hamkorlik madaniy almashinuv va “Xalq diplomatiyasi”ni rivojlantirishga xizmat qiladi. Markaziy Osiyo davlatlari o‘rtasida madaniy tadbirlar, festivallar va ko‘rgazmalar tashkil etilib, ular orqali mintaqa xalqlarining an‘analari va urf-odatlari targ‘ib qilinadi. Bu esa sayyohlarning qiziqishini oshirish bilan birga, mamlakatlar o‘rtasidagi o‘zaro ishonchni mustahkamlaydi. O‘zbekistonda ekoturizmni rivojlantirishda 2004 yil 3 mart kuni Toshkent shahrida “Ekoturizm va barqaror rivojlanish” xalqaro konferensiyasi bo‘lib o‘tdi. Konferensiyani xalqaro Ekosan jamg‘armasi va uning qoshidagi ekologik turizm markazi “Ekosan-Tur” faoliyati yuqori baholadi. Unda Markaziy Osiyoda mahalliy, milliy va regional miqyosda barqaror rivojlanish uchun ekoturizmni yuritish muammolari ko‘rib chiqildi[5].

Markaziy Osiyo mamlakatlari bilan turizm sohasidagi aloqalar natijasida Qozog‘iston Respublikasining Turkiston viloyati delegatsiyasi ham tashrifi natijasida ikkala viloyatga ekskursiyalar tashkil etish yuzasidan kelishib olindi. 2019 yilning 29-30 avgust kunlari Jizzaxdagi yoshlar innovatsiya markazida Xalqaro investisiya forumi o‘tkazildi. Turkiyaning “Idealist” kompaniyasi tomonidan Zomin tumanidagi Suffa hududidagi shaharcha loyihasi yuzasidan fikr almashildi[6]. O‘zbekiston Markaziy Osiyoda turizm sohasida o‘zaro hamkorlikni rivojlantirishda yetakchi rol o‘ynamoqda. So‘nggi yillarda mamlakatda turizm infratuzilmasini yaxshilash, viza rejimini soddalashtirish va xorijiy investorlarni jalb qilish bo‘yicha ko‘plab islohotlar amalga oshirildi. Masalan, 2023 yilda xorijiy sayyohlarni jalb qilish uchun turoperatorlarga subsidiyalar ajratish to‘g‘risida qaror qabul qilindi, bu esa Samarqand, Buxoro va Xiva kabi shaharlarga turistik oqimni oshirdi. Bundan tashqari, O‘zbekistonda Toshkent

xalqaro turizm yarmarkasi kabi tadbirlar muntazam ravishda o'tkazilib, mintaqa davlatlarining birlashgan turistik mahsulotlarini dunyoga targ'ib qilishga xizmat qilmoqda.

Ijtimoiy jihatdan, turizm xalqlar o'rtasidagi madaniy almashuvni kuchaytirib, milliy qadriyatlarning global miqyosda tanilishiga yordam bermoqda. Shu bilan birga, ortiqcha turizm (overtourism) va ekologik muvozanat buzilishi kabi muammolar ham paydo bo'lmoqda, xususan, Issiqko'l va Samarqand kabi joylarda chiqindilar hajmining oshishi kuzatilmoqda. Markaziy Osiyo davlatlari ushbu muammolarni bartaraf etish maqsadida barqaror turizm, ekoturizm, raqamli turizm va mintaqaviy integratsiya yo'nalishida hamkorlikni kuchaytirmoqda. 2023-yilda tashkil etilgan "Markaziy Osiyo turizm alyansi" mintaqaviy marketing, yagona viza tizimi ("Silk Visa") va transchegaraviy sayohat yo'nalishlarini rivojlantirishni maqsad qilgan[7].

2025-yil 28-noyabr kuni Xalqaro turizm haftaligi doirasida "Markaziy Osiyo - Yevropa Ittifoqi" birinchi turizm forumi bo'lib o'tdi [8]. Tadbir turizm sohasini rivojlantirish va hamkorlikni kengaytirishning dolzarb masalalarini muhokama qilish uchun Markaziy Osiyo va Yevropa Ittifoqi mamlakatlarining 150 dan ortiq sayyohlik idoralari vakillari, ekspertlar va xalqaro delegatsiyalarni birlashtirdi. Forum dasturidan mintaqaning turizm salohiyati, madaniy merosni asrab-avaylash va raqamli texnologiyalarni joriy etish mavzularida panel sessiyalari o'rin olgan. Markaziy Osiyo va Yevropa Ittifoqi mamlakatlari o'rtasidagi muloqot, turizm sohasida tajriba almashish va qo'shma imkoniyatlarga alohida e'tibor berilgan. Umuman olganda turizm Markaziy Osiyodagi mintaqaviy hamkorlikning asosiy yo'nalishlaridan biri bo'lib, qo'shni davlatlar o'rtasidagi iqtisodiy va madaniy aloqalarni mustahkamlashga xizmat qiladi.

Boy tarixiy-madaniy merosga, Buyuk Ipak yo'lining qadimiy yodgorliklariga va zamonaviy infratuzilmaga ega bo'lgan O'zbekiston ushbu yo'nalishni rivojlantirishda markaziy o'rin tutadi. So'nggi yillarda Qozog'iston, Qirg'iziston, Tojikiston va Turkmaniston bilan sayyohlik aloqalari faol rivojlanmoqda, bu esa mintaqaning yagona sayyohlik makonini shakllantirish uchun shart-sharoit yaratmoqda.

Xulosa. Markaziy Osiyo mamlakatlari o'rtasida turizm sohasidagi o'zaro hamkorlik mintaqaning iqtisodiy va madaniy salohiyatini ro'yobga chiqarishda muhim omildir. Mintaqalararo turistik marshrutlar, transport infratuzilmasini rivojlantirish, xalqaro yarmarkalar va madaniy almashuv kabi yo'nalishlardagi hamkorlik nafaqat xorijiy sayyohlar oqimini oshiradi, balki mintaqa ichidagi do'stlik va ishonch munosabatlarini mustahkamlaydi. O'zbekistonning bu boradagi tashabbuslari va islohotlari mintaqaviy turizmni rivojlantirishda muhim o'rin tutadi. Kelgusida Markaziy Osiyo mamlakatlari o'zaro hamkorlikni yanada chuqurlashtirib, dunyo turizm bozorida munosib o'rin egallashi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2016 yil 2 dekabrda "O'zbekiston Respublikasining turizm sohasini jadal rivojlantirishni ta'minlash chora-tadbirlari to'g'risida" gi PF-4861-son Farmoniga sharx. O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2016, 49-son, 558-modda.
2. Oybyek Sirojov. Markaziy Osiyo mintaqasida hamkorlik jarayonlari (tajriba va istiqbol)- B- 204
3. Mo'minov Azizbek Ziyoviddinovich. "O'zbekistonda ekologik turizmning rivojlanish jarayonlari (1991-2020 yy)". 07.00.01- O'zbekiston tarixi. Tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) ilmiy darajasini olish uchun yozilgan. DISSERTASIYA. Toshkent – 2021. 136-bet.
4. O'zMA, M-114-fond, 1-ro'yxat, 123-yig'ma jild, 2-21-varaqlar.
5. Matmurodov M. Ekoturizm. Ma'ruzalar matni. – Nukus, 2008. –B.81.
6. Rahmonqulova X. Dunyoga yuz ochayotgan yurt. // Jizzax haqiqati, 2020 yil 20 yanvar.
7. Xusanov Chari Kadirovich, MARKAZIY OSIYO MAMLAKATLARIDA XALQARO TURIZM RIVOJLANISHI. INDIA INTERNATIONAL SCIENTIFIC ONLINE CONFERENCE THE THEORY OF RECENT SCIENTIFIC RESEARCH IN THE FIELD OF PEDAGOGY. 218-221-betlar.
8. Markaziy Osiyo va Yevropa Ittifoqi mamlakatlarining turizm sohasidagi hamkorligi. <https://gov.uz/oz/uzbektourism/news/view/105577>.